

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SAYITOVA UMIDA HIKMATILLO QIZI

**TALABALARDA INTERNETGA TOBELIKNI OLDINI OLISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Sayitova Umida Hikmatillo qizi

Talabalarda internetga tobelikni oldini olishning psixologik xususiyatlari..... 3

Сайитова Умида Хикматилло кизи

Психологические особенности профилактики интернет-зависимости у
студентов..... 21

Sayitova Umida Hikmatillo kizi

Psychological features of preventing internet addiction in students..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SAYITOVA UMIDA HIKMATILLO QIZI

**TALABALARDA INTERNETGA TOBELIKNI OLDINI OLISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P599 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximova Indira Igorevna

psixologiya fanlari bo'yich falsafa doktori (Phd), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ostanov Shuxrat Sharifovich

psixologiya fanlari bo'yich falsafa doktori (Phd), dotsent

Qarshiyeva Dilafro'z Suyunovna

psixologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14; faks (+0365) 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Nazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.A. Xuseynova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda malakali, zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, sifatli kadrlar tayyorlash, har tomonlama etuk mutaxassislarni o'qitish tizimini takomillashtirish, ularni internetdan samarali foydalanish jarayoni va axborotlarga nisbatan tobeklik holatlarini oldini olish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda internet dunyosi har bir shaxsning hayotiga tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda internetdan foydalanish 2023-yil 7-yanvardagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, faol foydalanuvchilar soni 5,5 milliarddan oshganligi va buning aksariyat qismini yoshlar tashkil etmoqda. Shuningdek, so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan insonlarning 71 % kunlik vaqtning 8-10 soatini internetdan foydalanishga sarflashmoqda¹. Bunday holat esa dunyo miqyosida yoshlarning internetga tobeklik ko'rsatgichini o'rganish masalasi dolzarbligini belgilab bermoqda.

Jahon miqyosida o'zaro axborot almashinuvini ta'minlash, mobil hisoblash texnikasi, internet tizimi, axborotli aloqa tizimi, shu bilan birgalikda, boshqa aloqa texnologiyalari inson va jamiyat hayotidagi informatsion o'zgarishlar, shaxs faoliyatida axborotga bo'lgan ehtiyojlarni keskin oshirib bormoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, internetga tobeklikning turli jihatlarini bo'yicha dunyoning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida, aynan mazkur muammo yuzasidan, Boston shimoli-sharqiy universiteti (AQSH), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya), Regents universiteti (Buyuk Britaniya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida (Rossiya), Seul Milliy universiteti (Janubiy Koreya), Xitoy Milliy ta'lim tadqiqot markazlari (NIES, Guanchjou) ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yoshlarda internetga tobeklik omillari, ularning hissiy-emotsional holatlarini o'rganish, irodaviy sohasini ilmiy jihatdan yoritib berish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda, jamiyatning turli sohalarini zamonaviy axborot-texnologik vositalar bilan ta'minlash, sohalararo axborot savodxonligini oshirish, xavfsiz axborot muhitini joriy etish, yosh avlodni salbiy axborotlar xurujidan himoyalash, talabalar o'rtasida internetga tobeklikni oldini olish, yuksak malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning zarur asoslari yaratilmoqda. Bu borada «Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish» ustuvor vazifasi belgilab berildi². Shu munosabat bilan yoshlarda internet tobekligiga qarshi axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, ularga ta'sir o'tkazuvchi psixologik omillarning differensial jihatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 22-avgustdagi «2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya

¹ <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide>

² <https://lex.uz/docs/-5841063>

texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-sonli «Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Talabalarda internetga tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlari, kibermakon psixologiyasini tadqiq qilishning nazariy-amaliy masalalari, xususan, virtual aloqa va tizimli xarakterdagi shaxsiy transformatsiyalar hamda kompyuter o'yinlarining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga oid masalalar o'zbek psixolog olimlardan N.M.Dalimova, D.G.Muxamedova, L.A.Nigmatulina, I.I.Raximova, S.B.Raximmirzayev, G.Turgunova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari internetga tobelik, internet va shaxs, kiberxavfsizlikning inson qadriyatlariga ta'siri, talaba yoshlarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari, axborotlarning psixologik xavfsizligi, texnogen o'zgarishlar, yoshlar tarbiyasi, internet addiksiyaning namoyon bo'lishi, internetga tobelikning psixoprofilaktikasi kabi masalalarda o'ziga xos izlanishlar olib borishgan. Jumladan, tadqiqotchilardan V.M.Bondarovskaya, H.I.Bochkareva, A.E.Voyskunskiy, T.N.Dudko, A.Yu.Egorov, D.I.Feldshteyn, Y.V. Fomicheva, A.Jichkina, K.E.Jurenkov, I.S.Kon, L.G.Leonova, O.V.Litvinenko, V.A.Loskutova, V.S.Muxina, N.A.Nosov, L.O.Perejogin, A.A.Rean, V.Yu.Ribnikov, A.E. Voyskunskiy, S.A.Shapkin, A.F.Shaydullina, I.Shevchenko, A.G.Shmelev, N.V.Chudova va boshqalar tadqiqotlarida internetdan foydalanish motivlari, internetga tobelikning keltirib chiqaruvchi psixologik omillariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan R.O.Anker, P.E.Bertazzi, M.Griffits, V.L.Maligina, K.Myurrey, O.Ritchell, N.A.Tsoy, K.S.Yang va boshqalar internetga tobelik, xulq-atvor muammolari, internetdan olingan ma'lumotlardan foydalanish madaniyati, tobelikning oqibatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170913120-sonli «Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning psixologik mexanizmlari» ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda internet tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalardagi tobe axloqqa ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, shaxsning motivatsion sohasini asoslash;

shaxsning informatsion faoliyatdagi motivatsion sohasini psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

talabalardagi internetga tobelikni namoyon bo'lishida ta'sir etadigan omillarni dalillash;

talabalarining internetga tobeligining oldini olish usullari, kommunikativ nazorat va hissiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan trening dasturini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalar internet tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga O'zbekiston Milliy universitetining 120 nafar va Buxoro davlat universitetining 114 nafar talabalari, jami 234 nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarda internet tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, Y.N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnovlarning «Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi bo'yicha so'rovnoma»si, T.V.Snegireva tomonidan modifikatsiya qilingan K.Rojers va R.Raymondning «Psixologik adaptatsiya so'rovnoma»si, V.I.Morosanovning «O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi so'rovnoma»si, V.V.Sinyavskiy va V.A.Fedoroshinning «Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari» testi, M.Schneiderning «Kommunikativ nazorat so'rovnoma»si, V.V.Boykoning «Shaxslararo muloqotda hissiy to'siqlar diagnostikasi so'rovnoma»si, L.N.Yuryeva, T.Y.Painbotaning «Kompyuterga qaramlik diagnostikasining skrining metodikasidan» foydalanildi va olingan natijalarni statistik ishonchlik darajasi matematik statistika metodlaridan: Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalardagi tobe axloqni oldini olishda shaxs axborot faoliyatining motivatsion sohasi, psixologik moslashuvi, o'z xulq-atvorini boshqarishi, kommunikativ hamda tashkiliy qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotdagi hissiy holatini virtual makonga nisbatan ta'sirchanlik darajasi muhimligi tufayli internega moyillikni belgilovchi tarkibiy tuzilmani differensiatsiyalash muhimligi asoslangan;

shaxsning informatsion faoliyatdagi motivatsion sohasini psixologik xususiyatiga ko'ra «filtrlanmagan axborotlar» kognitiv, hissiy sifatlarning destruktiv o'zgarishiga olib kelib, shaxslararo munosabatlardagi real muloqotni virtual makonga «siqib chiqarganligi» tufayli talabalarda internetga tobelik kommunikativ motivlarning ustuvorligi bilan xarakterlanishi asoslangan;

talabalardagi internetga tobelikni namoyon bo'lishida atrofdagilar bilan konstruktiv ijtimoiy-psixologik munosabat o'rnatish ko'nikmasini

shakllanmaganligi yolg'izlik hissi, nizolashuvchanlik bilan bog'liq xulqiy-emotsional barerlarni kuchaytirganligi tufayli shaxslararo muloqotdagi hissiy to'siqlar muhim omil ekanligi dalillangan;

talabalarining internetga tobeligining oldini olishda subyekt-subyekt munosabatlaridagi ijtimoiy kompetentlik (kommunikativ qobiliyat, nazorat) hamda hissiy-irodaviy sohani barqaror rivojlanishi shaxs moslashganligini ta'minlaganligi hamda real konstruktiv muloqot o'rnatish xususiyatini tarkib toptirganligi tufayli o'z xulq-atvorini boshqarish ko'nikmasini shakllantirish muhim ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar o'rtasida internetga tobelikning oldini olish mexanizmlarini o'rganishga doir test va so'rovnomalar amaliyotga joriy etilgan;

talabalar internetga tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni aniqlash, internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar kontent tahlil qilingan;

talabalar o'rtasida internetga tobelikning oldini olish bo'yicha psixologik trening tayyorlangan va uning samaradorligi amaliyotda sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslangan, psixologiya yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning turli darajadagi (birlamchi va yuqori darajalardagi) metodlari kompleks qo'llangani; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talabalar asosida ishlab chiqilganligi; ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhini ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalar o'rtasida internetga tobelikning oldini olish bo'yicha tayyorlangan trening dasturini ishlab chiqish bilan belgilanadi, bundan tashqari talabalarda internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillari, ichki mexanizmlari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek, tadqiqot materiallari talaba axloqiy-motivatsion sohasida munosabatlarini belgilovchi motivlar to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Pedagogik psixologiya», «Ochiq axborot tizimida psixologik xavfsizlik», «Psixodiagnostika», «Psixologik maslahat» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot doirasida treninglar majmuini oliy ta'lim muassasalarini amaliyotiga tadbiiq etilishi orqali, talabalar shaxsini psixologik jihatdan mukammal yondashishida, ularda dunyoqarashini shakllantirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, amaliy faoliyatda talabalarining o'quv faoliyatini faollashtirishda, psixologik maslahat, psixodiagnostika, psixokorreksiya vazifalarini amalga oshirishda tadqiqot ishi natijalari va metodik materiallari manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda internet tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

talabalardagi tobe axloqni oldini olishda shaxs axborot faoliyatining motivatsion sohasi, psixologik moslashuvi, o'z xulq-atvorini boshqarishi, kommunikativ hamda tashkiliy qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotdagi hissiy holatini virtual makonga nisbatan ta'sirchanlik darajasi muhimligi tufayli internetga moyillikni belgilovchi tarkibiy tuzilmani differensiatsiyalash muhimligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-101a-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-101a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi tobe axloqni oldini olishda shaxs axborot faoliyatining motivatsion sohasini aniqlangan.

shaxsning informatsion faoliyatdagi motivatsion sohasini psixologik xususiyatiga ko'ra «filtrlanmagan» axborotlar kognitiv, hissiy sifatlarning destruktiv o'zgarishiga olib kelib, shaxslararo munosabatlardagi real muloqotni virtual makonga «siqib chiqarganligi» tufayli talabalarda internetga tobelik kommunikativ motivlarning ustuvorligi bilan xarakterlanishi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-101a-sonli buyrug'i bilan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-101a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shaxsning informatsion faoliyatdagi motivatsion sohasini psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishirilgan.

talabalardagi internetga tobelikni namoyon bo'lishda atrofdagilar bilan konstruktiv psixologik munosabat o'rnatish ko'nikmasini shakllanmaganligi yolg'izlik hissi, nizolashuvchanlik bilan bog'liq xulqiy-emotsional barerlarni kuchaytirganligi tufayli shaxslararo muloqotdagi hissiy to'siqlar muhim omil ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-101a-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-101a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi internetga tobelikni namoyon bo'lishda ta'sir etadigan omillarni dalillangan.

talabalarining internetga tobeligining oldini olishda sub'ekt-sub'ekt munosabatlaridagi ijtimoiy kompetentlik (kommunikativ qobiliyat, nazorat) hamda hissiy-irodaviy sohani barqaror rivojlanishi shaxs ijtimoiy-psixologik moslashganligini ta'minlaganligi hamda real konstruktiv muloqot o'rnatish xususiyatini tarkib toptirganligi tufayli o'z xulq-atvorini boshqarish ko'nikmasini shakllantirish muhim ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-101a-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-101a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talaba yoshlarning internetga tobeligining oldini olish yo'llari ularning

axborot faoliyatining motivatsion sohasini, kommunikativ nazorat va hissiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan trening dasturini takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Talabalar internetga tobeligini tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda o'rganilayotgan muammo bo'yicha bugungi kundagi internetga tobelik muammosini o'rganishning fenomeni, mexanizmlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirilgan.

Internetga tobelikning asosiy oqibatlari sifatida ko'pchilik tadqiqotchilar turli xil shaxsiy o'zgarishlarni, xususan, depressiv-xavotirli kechinmalar shaklida namoyon bo'ladigan hissiy sohadagi salbiy deformatsiyalarni, shuningdek, internet makondan tashqarida sodir bo'ladigan jarayonlarga qiziqishni yo'qotishi bilan belgilanadi. Buning oqibati yolg'izlik va ijtimoiy frustratsiyani qo'zg'atadigan, qadriyatlar, istaklar va intilishlar tizimining o'zgarishiga olib keladigan, o'z navbatida kelajak hayot rejalarining adekvatligiga ta'sir qiluvchi, shaxsning real hayotda passivlik, harakatsizlik, tashabbussizlikni shakllantirib, tobe foydalanuvchining global tarmoqdan tashqarida ijtimoiy aloqalarini sezilarli darajada cheklaydi. Ushbu bobda internetga tobelik bo'yicha xorij olimlari hamda mamlakatimiz psixologlarining mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari umumlashtirilgan.


Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan talabalarda internet tobeligining psixologik xususiyatlarini o'rganishgan. Jumladan, M.Griffits, V.L.Maligina, K.Myurrey, O.Ritchell, N.A.Tsoy, K.S.Yang va boshqalarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi xulq-atvoridagi muammolar,

internetdan olingan ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishning psixologik oqibatlarini to'g'risidagi fikrlarga sharhlar berilgan.

Rus olimlaridan V.M.Bondarovskaya, A.E.Voyskunskiy, V.D.Mendelevich, D.G.Rybaltovich, A.Y.Yegorov va boshqalar internetdan foydalanish motivlari, internetga tobelikning psixologik sabablari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbek olimlaridan kibermakon psixologiyasini tadqiq qilishning nazariy va amaliy masalalari, xususan, virtual aloqa va tizimli xarakterdagi shaxsiy transformatsiyalar D.G.Muxamedova, S.B.Raximov va boshqalar kompyuter o'yinlarining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'siri muammosini N.M.Dalimova, D.G.Muxamedova, L.A.Nigmatulina, I.I.Raximova, G.Turgunova singari olimlar kasbiy va psixologik kompetentlik muammosiga oid tadqiqotlar olib borgan.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Talabalarning internet tobeligini tadqiq etishning psixodiagnostik jihatlari**» mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, talabalarning internetga tobelik tendensiyasining tanlangan komponental strukturasi bo'yicha informatsion faoliyatda motivatsion sferaning o'ziga xos xususiyatlari, psixologik adaptatsiya, o'z xulq-atvorini boshqarish, kommunikativ qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotda hissiy samaradorlikning psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot metodikalarining psixodiagnostik tuzilmasi, olingan dastlabki natijalar tahlil hamda internetga tobelik omillarining o'zaro bir-biriga bog'liqligi jihatlari yoritib berilgan.



Shunday qilib, yuqorida ta'kidlanganlarga asoslanib, talabalarning internetga tobeklik tendensiyasining komponental strukturasi psixodiagnostika qilish usullarini tanlashga imkon beradi.

Tadqiqot olib borish jarayonida aniqlangan individual psixologik xususiyatlarni tahlil qilish, asosan psixodiagnostika uchun ishonchli va asosli vositalar mavjud bo'lgan shaxs shakllanishining turli tuzilmalariga e'tibor qaratgan holda ko'rib chiqdik.

Dastlab, Y.N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnovalar tomonidan ishlab chiqilgan «Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi» bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tamiz (1-rasm).




1-rasm. Internetga tobeklik tendensiyasining tarkibiy komponenti (informatsion faoliyatda motivatsion sferaning o'ziga xos xususiyatlari)ning empirik tadqiqi natijalari (n=234)

Tadqiqot natijalariga ko'ra, «kommunikativ motivatsiya» ko'rsatkichi 68,8 % natijani tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning ko'pchilik qismida real hayotga nisbatan internet tarmog'i orqali qilinadigan kommunikativ muloqotga nisbatan motivatsiya kuchli ekanligini anglatadi. Keyingi o'rinda turuvchi motivatsiya bu «kompensatsion motivatsiya» bo'lib, bu ko'rsatkich 36,3 % natijani tashkil etdi. Bu respondentlarning aksariyat qismida haqiqiy hayotni internet olami bilan kompensatsiya qilish ko'rsatkichi baland ekanligini bildiradi. Navbatdagi «relaksatsion motivatsiya»da bu ko'rsatkich 28,6 % ni va «kognitiv motivatsiya»da esa 17,9 % ni tashkil qildi. Mazkur toifadagi respondentlar uchun internetda vaqt o'tkazish real hayotda boshdan kechirilgan stressli vaziyatlar va qiyinchiliklardan keyin dam olish vositasida sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon asosan ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan tegishli ma'lumotlarni idrok etish orqali amalga oshiriladi. Kognitiv motivatsiyaga ega bo'lgan respondentlar uchun internet ularning bilimni boyituvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi, intellektual darajasini rivojlantiruvchi maqsadli ma'lumotlarni izlash vositasi deb talqin qilinadi. Bundan tashqari, talabalarning ushbu toifasi, odatda, ma'lumotni

yangiligi, o'z kasbiy darajasini oshirish imkoniyati, amaliy ahamiyati, ilmiy asoslilik kabi mezonlar asosida baholanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarda eng kam ko'rsatkichlar «reaktivatsion motivatsiya» 1,3% natija kuzatildi. O'z navbatida, reaktivatsion motivatsiyaga ega bo'lgan respondentlarning ajralib turadigan xususiyatlari shundaki, ularning internetdan foydalanishi muayyan stimulatsiya vositasida sodir bo'ladi, jumladan, ma'lumotdan foydalanish ularga kayfiyatini, emotsional holatini ko'tarish, quvnoqlikka erishish uchun kerak bo'ladi bu esa internetga tobelikni yuzaga keltirmaydi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida talabalarda internet tobelikni keltirib chiqaradigan psixologik omillar tahlillarini ko'rib chiqdik (2-rasm).



2-rasm. Talabalarda internet tobelikning hozirgi holati bo'yicha empirik tahlili natijalari (n=234)


Mashhur olimlar C.Rodgers va R.Daymondlar tomonidan ishlab chiqilgan va T.Snegirev tomonidan moslashtirilgan «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» bo'yicha eng yuqori 20,1 % (47 kishi) hamda yuqori darajada rivojlanish 6 % (14 kishi) holatlari eng kam natijalarni ko'rsatdi. Ijtimoiylashuvdan farqli mîslashuv jarayini amal qilish idatiy shariitlarining i'zgariishi, ijtimoiy i'zari ta'sir muammolarining yuzaga kalishi idatiy ahamiyat bilan nhaklanmaydigan hal qilishning failiyat yillari shariitida rivjlanadi. Uning mihiyati amal qilishning ibyaktiv shariitlariga ularni muvfiqlashtirish maqsadida shodslarari va ijtimoiy rillarining qadriyatlari hamda ma'yirlar i'zari ta'siri transfiratsiyasi (i'zgariishi) unhun asis bi'lib oizmât qiladigan o'ulq-atvîrning (munisabat, bilim, ishinnh) yangi o'siõilgik ragulyatirlari shakllanishidan ibirat. Bu o'z navbatida respondentlarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonining yo'qligini va ularda ijtimoiy muhitda qulaylik his qilmasligini internet olamiga nisbatan talpinishini anglatadi.

Talabalarning internet tobeliginidan himoyalashda xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarining muhim hisoblanadi. «O'z xulq atvorini boshqarish» yuqori ko'rsatkichi 20,9 % ni tashkil etmoqda. Bu esa talabalar haqiqiy hayotda

o'z xulq atvorini boshqara olmasliklarini va shaxslar bilan aloqa o'rnatishda ham qiyinchiliklarga uchrashlarini anglatadi.

Keyingi «kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati» eng yuqori ko'rsatgich 17,5 % ni, yuqori ko'rsatgich 2,6 % ni, «kommunikativ nazorat»ning yuqori ko'rsatgichi esa 15,4 % natija qayd etildi. Bundan ko'rinib turibdiki, shaxslararo kommunikatsiyaning yo'qligi, tashkilotchilik qobiliyatining pasayishi haqiqiy hayotga nisbatan internet olamida muloqot qilishga xohishning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi ko'rsatgichlarning barchasi talabalarning ijtimoiy muhitda va shaxslar bilan muloqotda o'z o'rinlarini topolmasdan internet tarmog'iga intilib, internetga tobe bo'lib qolishni yuzaga keltirayotganligini asoslab ko'rsatib turibdi.

Talabalardagi internetga tobeklik tendensiyasining tarkibiy komponenti bo'lgan muloqotdagi hissiy yaqinlik bo'yicha dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz (3-rasm)



3-rasm. V.V.Boykning «Shaxslararo muloqotda hissiy to'siqlar diagnostikasi» so'rovnoma ning empirik tadqiqi natijalari (n=234)

Talabalarning aksariyat 51,7 % qismida tashxis qo'yilgan xususiyat rivojlanishining uchinchi darajasi kuzatildi, ushbu toifaga mansub respondentlar kundalik hayoti, faoliyati yoki muloqot jarayonida paydo bo'ladigan ba'zi hissiy muammolarga ega ekanligi aniqlandi. Miqdoriy nuqtayi nazardan, respondentlarda ushbu xususiyatning to'rtinchi tarkibida 23,5 % va ikkinchi tarkibiy qismida 22,6 % darajalarda rivojlanganligi kuzatildi. Bunga ko'ra, to'rtinchi darajali rivojlanish talabalarning kundalik faoliyatda kommunikativ muloqotda ba'zi qiyinchiliklarga uchrashi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi darajaga mansub talabalar toifasi, asosan, muloqot jarayonida hissiy jihatdan deyarli hech qanday muammoga duch kelmaydi. Eng kam uchraydigan holat 1,7 % beshinchi darajaga mansub talabalarda kuzatildi. Ularda, ko'pincha, hissiy soha boshqalar bilan kommunikativ muloqot o'rnatish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, respondentlarning 0,4% qismida ishonchlilik shkalasi deb ataladigan birinchi daraja kuzatildi, bu esa ijtimoiy ma'qul javoblar bilan bog'liq hisoblanadi.

Endi tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda tanlangan metodikalar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni ko'rib chiqamiz.

1-jadval

1	Tahlil qilinayotgan xususiyatlarning nomlari	Kognitiv motivatsiya	O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi	Relaksatsion motivatsiya	Kompensatsion motivatsiya	Psixologik adaptatsiya
1	«Kompyuterga tobelik diagnostikasining skrining metodikasi»	-0,297*	-0,421*	0,347*	0,401*	-0,305*

«Kompyuterga tobelik diagnostikasining skrining metodikasi» hamda internetga tobelik tendensiyasining tarkibiy komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari (n=234)

1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, «Kompyuterga tobelik diagnostikasining skrining metodikasi» «relaksatsion motivatsiya» ($r=0,347$; $p \leq 0,05$), «kompensatsion motivatsiya» ($r=0,401$; $p \leq 0,05$) bilan ijobiy, «kognitiv motivatsiya» ($r=0,297$; $p \leq 0,05$), «o'z xulq-atvorini boshqarish uslubi» ($r=0,421$; $p \leq 0,05$), hamda «psixologik adaptatsiya» ($r=0,305$; $p \leq 0,05$) omillari bilan salbiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi.

Shunday qilib, ushbu korrelyatsiyalar talabalarning informatsion faoliyatda motivatsion sferaning ularning internetga tobelik darajasiga ta'siri sezilarli ekanini ko'rsatdi. Xususan, kognitiv motivatsiyaning rivojlanishi talabalar o'rtasida internetga tobelikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, talabalar qanchalik atrof-muhit to'g'risida adekvat bilimlarga ega bo'lishsa, ularda internet tarmog'idagi keraksiz ma'lumotlardan foydalanish darajasi shunchalik pasayadi.

O'z navbatida, relaksatsion hamda kompensatsion motivatsiyaning rivojlanishi, respondentlarning internetga tobeligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Chunki, internet olami talabalarga tashqi muhitdan ko'ra, relaksatsiya motivatsiyasini uyg'onishiga va uni rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari talabarni ijtimoiy muhitda o'zini to'la namoyon eta olmasliklari, ularni turli xil internet tarmoqlarida o'zini "ko'rsatish" orqali kompensatsiya qilinishi dalilandi.

Talabalarni «o'z xulq-atvorini boshqarish uslubi» internetga tobelik darajasi bilan teskari aloqadorligi kuzatildi. Bundan ko'rinadiki, shaxsning faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish ko'nikmasining shakllanishi ularda o'z xatti-harakatlari dasturini tuzish, turli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'zini o'zi boshqarish kabi xususiyatlar ularni internet tarmog'iga qaramligini pasaytirar ekan. Internet tarmog'i esa o'z navbatida talabalarning

erkinligini va o'z xulq atvorini nazorat qilish esa talabalarni ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Kompyuterga tobelik diagnostikasini psixologik adaptatsiya bilan teskari aloqadorligi kuzatildi. Yangi sharoitlarda mîslashuv jarayonining muvaffaqiyatlilikligi bu tajribani turli darajadagi sharoitlar strukturallari umuminsaniy, ijtimoiy-sotsialik va individual ahamiyati bilan birga mis kalmi o'z xulq-atviri hamda faoliyatning yangi dasturlari ragnatirlari qurish uhnun fiydalanish qobiliyati bilan balgilanadi. Demak, talabalar ijtimoiy munosabatlarga qanchalik yaxshi kirishishsa, ularda internetga nisbatan bo'lgan munosabat ham o'zgarishi aniqlandi.

Endi, «o'z xulq-atvorini boshqarish uslubi» hamda «internetga tobelik tendensiyasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz (2-jadval).

2-jadval

«O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi» hamda «Internetga tobelik tendensiyasi»ning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari (n=234)

1	Tahlil qilinayotgan xususiyatlarning nomlari	Kognitiv motivatsiya	Relaksatsion motivatsiya	Kompensatsion motivatsiya	Psixologik adaptatsiya	Kommunikativ qobiliyatlar	Tashkilotchilik qobiliyatlari
1	O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi	0,501*	-0,104	-0,017	0,352*	0,389*	0,010

O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi «kognitiv motivatsiya» ($r=0,501$; $p \leq 0,05$), «psixologik adaptatsiya» ($r=0,352$; $p \leq 0,05$) hamda «kommunikativ qobiliyatlar» ($r=0,389$; $p \leq 0,05$) bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorligi kuzatildi.

O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi bevosita kognitiv motivatsiya bilan bo'g'liqligi kuzatildi. Talabalarda yangi qiziqarli manbalarga, hdisalarga qiziqish yiki voqealarning muhim o'xususiyatlariga, ya'ni dduktiv o'ulisalar nhiqarishga yiki i'quv matariolidagi oilm-oillikka, nazariy tamiyillarga, asisiy g'yalarga qiziqishi ularning kognitiv motivlarini oshishiga sabab bo'ladi. Internetga tobe talablarning internet olamida o'z xulq-atvorlarini boshqara olishga intilishi kognitiv motivatsiyaning internet olamiga yo'nalganlikni keltirib chiqaradi.

O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi bevosita psixologik adaptatsiya bilan ham bog'liqligi aniqlandi. Ijtimoiylashuvdan farqli mîslashuv jarayoni amal qilish idatiy sharoitlarining i'zgarishi, ijtimoiy i'zari ta'sir muammilarining yuzaga kalishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham talabalarda ijtimoiy jarayonlarga moslashish darajasi qanchalik yuqori darajada shakllanishi, ularda o'z xulq-atvorini boshqarish ko'rsatkichlarini ham shunchalik yuqori bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi asoslandi.

Talablarda muloqotchanlik, o'z fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmalarini shakllanishi o'z navbatida ularning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kommunikativ qobiliyatlar asosan faoliyat davomida shakllanadi. Uning mazmun-mihiyati amal qilishning ibyaktiv shariitlariga ularni muvofiqlashtirish maqsadida shahslarari va ijtimoiy rillarning qadriyatlari va ma'yirlari izari ta'siri transfiratsiyasi (izgarishi) uinhun asis bilib oizmati qiladigan xulq-atvining (munisabat, bilim, ishin) yangi shoiilik raxulyatirlari shakllanishidan ibirati. Mazkur holat internetga tobe talablarning real muhitda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatiga ega emasliklarini biroq internet muhitida ushbu qobiliyatni namoyon qilishga bo'lgan moyilligi bilan ham izohlanadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, o'rtacha har uchinchi respondentda internetga tobelik tendensiyasining tarkibiy komponentlari ko'rsatkichlarining rivojlanish darajasi atarli emas degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari, korrelyatsion tahlili natijalariga ko'ra, talabalarda internetga tobelikning rivojlanishi bilan tarkibiy komponentlarning informatsion faoliyatda motivatsion sferaning o'ziga xos xususiyatlari, psixologik adaptatsiya, o'z xulq-atvorini boshqarish, kommunikativ qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati o'rtasida yuqori statistik aloqadorlik mavjudligini ko'rsatib turibdi. Umuman olganda, empirik tadqiqot natijalari, bir tomondan, internetga tobelik tendensiyasining aniqlangan komponental strukturasini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, talabalarni internetdagi salbiy axborotlardan himoya qilishning psixologik usullarini o'rganish, internetga tobelik tendensiyasining komponental strukturasidan korreksiyada samarali foydalanish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning «**Talabalar o'rtasida internetga tobelikni oldini olishning psixologik imkoniyatlari**» nomli uchinchi bobida talabalarining internetga tobe xulq-atvori, ularga sifatli psixologik xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Talabalarni internetga ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan psixoprofilaktik, psixodagnostik va psixokorreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, talabalarga internetga tobeligiga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha olingan empirik ma'lumotlarning dinamik o'zgarishlari o'rganildi. Biz korreksion dastur o'tkazganimizdan so'ng talabalarining xulq-atvorida o'zgarishlar sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligini tahlil qildik. Tayyorlangan psixologik treningning asosiy maqsadi talaba yoshlar o'rtasida internetga tobelikning oldini olishdan iborat. Trening maqsadidan kelib chiqib, quyidagi asosiy vazifalar shakllantirildi:

- talabaning informatsion faoliyati aspektida motivatsion sohani, asosan, kognitiv jihatdan rivojlantirish, bunda global tarmoq bilimlar zaxirasini boyitish, umumiy intellektual rivojlanish, kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy o'sish va boshqalar uchun ishlatiladi;

- ijtimoiy muhitning qadriyatlari va me'yorlariga moslasha oladigan, ijtimoiy muhit va o'zi bilan munosabatlarni o'rnatishga qodir bo'lgan talaba shaxsining psixologik adaptatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish;

- xulq-atvor, mustaqillik, moslashuvchanlik va tez o'zgaruvchan turmush sharoitlariga adekvat javob bera olish va boshqalarni ongli ravishda boshqarishning individual tizimini optimallashtirish;


- kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini, talabaning kommunikativ va tashkiliy faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj, qiyin vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, yangi jamoalarda qulaylik, o'z fikrini munosib himoya qilish va tegishli maqsadlarga erishish qobiliyatini rivojlantirish;

- talabaning kommunikativ nazoratini optimallashtirish, o'zini o'zi boshqarish, o'z his-tuyg'ularini ifodalashni nazorat qilish, o'z reaksiyalarining atrofdagi shaxslarning xatti-harakatlari bilan bog'liqligi va boshqalar;

- muloqotda hissiy samaradorlikni, aralashuvlarni bartaraf etish, kommunikativ muloqotdagi to'siqlar, shaxslarga hissiy asosda yaqinlashish qobiliyati va boshqalarni optimallashtirishdan iborat.

4-rasm

Talabalarda internetga tobellikning treningdan oldingi va treningdan keyingi ko'rsatgich natijalari



Endi yuqoridagi korreksion dastur qo'llanilgan keying statistik tahlil natijalariga o'tamiz. Ikkinchi kompleks psixodiagnostik tekshiruv natijalari (psixologik treningdan so'ng) eksperimental guruh talabalari o'rtasida internetga tobellikka moyillikning ajratib olingan tarkibiy komponentlar o'rtasidagi rivojlanishining dinamikasi o'zgarganligini ko'rsatdi. Xususan, psixologik trening natijasida talabalardagi motivatsion sohaning xususiyatlari ijobiy tomonga o'zgarganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan: «kommunikativ motivatsiya»ning ustunligi (yuqori darajasi) 84,1% dan (birinchi tekshiruv) 19% gacha (ikkinchi tekshiruv) sezilarli darajada kamaydi; «relaksatsion motivatsiya»ning ustunligi (yuqori darajasi) 17,5% dan (birinchi tekshiruv) 3,2% gacha (ikkinchi tekshiruv) kamaydi; «kognitiv motivatsiya»ning ustunligi (yuqori darajasi) 15,9% dan (birinchi tekshiruv) 58,7% gacha (ikkinchi tekshiruv) sezilarli darajada oshdi; «kompensatsion motivatsiya»ning ustunligi (yuqori darajasi) 30,2% dan (birinchi tekshiruv) 3,2% ga (ikkinchi tekshiruv) sezilarli darajada

kamaydi, «psixologik adaptatsiya» rivojlanishining yuqori darajasi 9,5% dan (birinchi tekshiruv) 49,2% gacha (ikkinchi tekshiruv) oshdi, «o'z xulq-atvorini boshqarish»ning past darajada rivojlanishi 30,2% dan (birinchi tekshiruv) 1,6% gacha (ikkinchi tekshiruv) sezilarli darajada kamaydi, «kommunikativ nazorat» rivojlanishining o'rta darajasi 77,8% dan (birinchi tekshiruv) 54% ga (ikkinchi tekshiruv) kamaydi, «kommunikativ qobiliyat» rivojlanishining past darajasi 31,7 foizdan (birinchi tekshiruv) 4,8 foizga (ikkinchi tekshiruv), «tashkilotchilik qobiliyati»niki esa 12,7 foizdan (birinchi tekshiruv) 1,6 foizga (ikkinchi tekshiruv) kamayganligi aniqlandi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, «Talabalar o'rtasida internetga tobelikning oldini olish»ga qaratilgan psixologik treningining samaradorligini tasdiqlashga imkon berdi. Xususan, treningdan oldingi va keyingi kompleks psixodagnostik tekshiruv natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalarining psixologik treningda ishtirok etishi natijasida ushbu toifada internetga tobelik tendensiyasining komponental tarkibi optimallashti. Demak, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, talabalarni internet tobeligidan himoyash holatlarni chuqur tahlil qilish va shu tahlillar asosida har bir talabaga alohida psixologik yondashuv usullarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan ushbu ma'lumotlar psixokorreksion dasturlarining samaradorligi to'g'risida tegishli adekvat qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

«Talabalarda internet tobeligini oldini olishning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Zamonaviy tadqiqotlarni umumlashtirilgan natijalaridan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya doirasida talabalarga nisbatan internetga tobelikni, aks ettiruvchi psixologik xususiyatlarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. O'z mohiyatiga ko'ra, o'rganilayotgan hodisa global internet tarmog'ida tegishli axborot vositalaridan (smartfon, planshet, shaxsiy kompyuter va boshqalar) haddan tashqari me'yoridan ko'p vaqt mobaynida foydalanishi statistik tahlillar orqali isbotlandi.

2. Talabalarni internetga tobelik ta'sirlardan himoyalashning dinamikasini, psixologik usullarini takomillashtirish, yoshlarni turli axborot manbalaridan foydalanish holati, axborot madaniyatining shakllanganlik darajasi, axborot faolligining motivatsion tarkibini o'rganishda empirik natijalar qo'lga kiritildi.

3. Talabalarni internetga tobelik ta'siridan himoyalashning psixologik mexanizmlariga o'z xulq-atvorini boshqarish, angib o'tuvchi xulq-atvori, kibermakondan chiqishda iroda sifatlarini baholash, internetga tobelikning oldini olishning yangi zamonaviy yo'llari va moslashuvchanlik kabi psixologik omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi dalillandi.

4. Internetga tobelik talabalarining axborot faoliyati aspektidagi motivatsion sohasining xususiyatlari, ularning psixologik moslashuvi, xatti-harakatlarini o'z-o'zini tartibga solish, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlar darajasi,

kommunikativ nazorati, shuningdek muloqotda hissiy barqarorlikka erishishda namoyon bo'lishi isbotlandi.

5. Globallashuv davrida talabalarda uchraydigan turli xil internet ta'sirlar jarayonida shaxsning faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish, o'z faoliyatini ongli ravishda tashkil qilish, ijtimoiy munosabatlarda o'z pozitsiyasini anglash kabi sifatlarni muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillandi.

6. Talabalar internetga tobeligini korreksiyalash dasturining samaradorligi, axborot faoliyatining motivatsion tuzilishi, psixologik moslashuv, xatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarishi, muloqot qobiliyatlari, tashkiliy qobiliyatlar, kommunikativ nazorat, hissiy aloqa omillaridagi ishonchli farqlar qayd etildi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida quyidagi **tavsiyalarni** ishlab chiqildi.

1. Tanlangan test-so'rovnomalaridan mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining ijtimoiy adaptatsiya holati va darajasini o'rganish psixodiagnostik vosita sifatida keng foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba yoshlarning tashkilotchilik qobiliyati, kognitiv, kommunikatsiyada o'zini nazorat qila olishi internetga tobelikni angib o'tish qobiliyati, xususan, talaba yoshlarda shaxslararo muloqotda kommunikativ qobiliyati va kelajakda bilimlarni egallash hamda oliy ta'lim tizimida taqdim etilgan imkoniyatlarni qo'llash qobiliyati bilan bog'liq o'z xulq-atvorini boshqarishi kabi psixologik xususiyatlar hisobga olinishi lozim.

3. Yoshlarda axborotlarni saralash ko'nikmalarini shakllantirishga doir test va metodikalarni takomillashtirish, amaliyotchi psixologlar uchun hamda boshlang'ich bilimlarni aniqlash metodikasini yaratish imkoniyatini beradi.

4. Tadqiqot ishimizda olingan natijalar internetga tobelikni oldini olish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, talabalar bilan zamonaviy sharoitlarda sifatli psixologik ishlarni olib borish, ularni ilmiy tadqiqot ishlariga hamda kasbga yo'naltirilgan eng yangi texnologiyalarga samarali jalb etishda amaliy jihatdan qo'llanilishi samarali natijalarni beradi.

5. Samaradorligi amaliy jihatdan tasdiqlangan, internetga tobelik va salbiy axborotlarga psixologik tayyorgarlik dasturini kelajakda, o'qituvchilar, talabalar, aholining turli toifasiga qo'llash mumkin.

6. Internet tobeligini oldini olishda talabalar ongi, xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi ma'lumotlar, voqea-hodisalarni perseptiv obrazi asosida anglash, qabul qilishga undaydigan axborotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ΙΑΟ×ΙΰΕ ΝΊΑΑÒ PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 ΊΊ ΊΔΕΝÓÆÄÁÍÈƲ Ó×ÁÍŰŲ
ÑÒÁĬÁÍÁÉ ÄĬÊÒĬΔÀ ÔÈÊĬŊĬÔÈÈ (PhD) ΊΊ ΊÑÈÔĬÊĬÁÈ×ĂÑÊÈĬ ÍÀÓÊÀĬ
ΊΔÈ ÁÓŲΔŊÊÈĬ ÄĬŊÓÄΔŊŲÁÁĬĬÍÍÍ ÓÍÈÄΔŊÈÒÀŲÀ
—————
ÍÀŲÈĬÁÈŲĬΰΕ ÓÍÈÄΔŊÈÒÀŲ ÓÇÁÄÈÈŊŲÁÍÀ ÈĬÁÍÈ ΊÈƉÇĬ
ÓËÓÄÄÁÈÀ

ÑÀÉÈÒĬÄÀ ÓÍÈÄÀ ŲÈÊĬÀŲÈÈÊĬ ÊÈÇÈ

